

## Umurtqasiz hayvonlar Sarkodalilar ya'ni Soxtaoyoqlilar ( Sarcodina) sinfi

**Alaydinova Malikaxon Ravshanbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo‘nalishi 1- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezis Sarkodalilar ya'ni Soxtaoyoqlilar ( Sarcodina) mavzusida bo‘lib,ushbu sinfga xos xususiyatlar,hayotiy jarayonlari haqida ma’lumot berilgan. Tazisda adabiyotlar tahlili yoritilgan.

**Аннотация:** Данная дипломная работа посвящена тема Sarcodina , т.е. Sarcodina и достаточно освещена информация об, особенностях и регионах жизни этого класса.

**Abstract:** This thesis is on the topic of Sarcodina , i.e. false- legged ( Sarcodina), in which information is given about the characteristic and life processes of this class. The analysis of literature is covered in the thesis .

Sarkodalilar qattiq qobiqqa ega bo‘lmagan ,hujayra sitoplazmasi faqat sitoplazmatik membrana orqali tashqi muhitdan ajralib turadi. Soxtaoyoqlar ya'ni psevdopodiylar orqali harakat qiladi. Hujayrasi bitta yoki bir nechta yadrodan iborat. Sarkodalilar ko‘pincha ikkiga bo‘linish, ba'zan kurtaklanish orqali jinsiz ko‘payadi. Ayrim turlari parazit hisoblanadi.

Sarkodalilarning 11 mingdan ortiq turi mavjud [1,28- bet]. Sarkodalilar dengizlar va chuchuk suvlarda, bir qancha turlari tuproqda yo‘sinli botqoqliklar va o‘rmonlarda yashaydi. Ayrim turlari (mas, ichburug‘ amyobasi) parazit. Ko‘pchilik turlari tanasi ohak yoki kremniy chig‘anoq ichida joylashgan; chig‘anoq teshiklaridan sitoplazmasi o‘simtalari ( soxta oyoqlar) chiqib turadi. Soxta oyoqlar ( psevdopodiylar ) harakatlanish va oziqni qamrab olish vazifasini bajaradi. Soxta oyoqlar yassi parraksimon, ipsimon yoki nursimon bo‘ladi. Bakteriyalar, suvo‘tlar, shuningdek, bir hujayrali hayvonlar bilan oziqlanadi. Ko‘pchilik Sarkodalilar noqulay sharoitda sista hosil qiladi. Ikkiga yoki ko‘p marta bo‘linish ( shizogoniya) va kurtaklanish orqali jinsiz ham bir xil tipdagi gametalar ( izogametalar ) yoki har xil tipdagi gametalar ( anizogametalar) hosil qilish orqali jinsiy ko‘payadi [6].

Sarkodalilar yoki yolg‘onoyoqlilar boshqa bir hujayralilarga qaraganda birmuncha sodda tuzilgan.Ular o‘rtasidagi turli xil chig‘anoq bilan himoyalangan yoki murakkab tuzilgan skeletli dengiz formalari va nurlilar ham mavjuddir[4, 50- bet].

Bu sinfga 5 ta.

1. Amyobalar (Amoebina) . 2. Po‘stli yoki chig‘anoqli amyobalar ( Testacea). 3. Dengiz chig‘anoqli amyobalari yoki foraminiferalar ( Foraminifera). 4. Nursimonlar ( Radiolaria).5. Quyoshsimonlar ( Heliozoa) turkumlariga bo‘linadi [ 2, 26- bet].

Amyobalar turkumi sodda tuzilgan qattiq skeletli bo‘lib, chuchuk suv havzalarining chirindiga boy loyli tubida yashaydi [1, 28 - bet].

Chig‘anoqli amyobalar pastki tomonida teshikcha bo‘lib, bundan yolg‘on oyoqlari chiqib turadi [3].

Foraminiferalarning chig‘anoq xonalari bir qator, ikki qator ba' zi turlarida parallel , spiral buralgan, doirasining shaklda bo‘lib, chig‘anog‘i (  $\text{CaCO}_3$  ) moddasidan tuzilgan [3, 53- bet].

Bundan bir necha million yillar ilgari yashab,qirilib ketgan foraminiferalar ohaktosh konlarini hosil bo‘lgan [ 5, 13- bet].

Nurlilar qazilma holda kembriy davridan boshlab barcha qatlamlarda uchraydi [ 1, 38-bet].

Quyoshsimonlar turkumiga mansub bo‘lgan turlardan vatanimiz suv havzalarida diametri 1 mmga yetadigan Actinosphaerium eichorni, Actinophorys Sol uchraydi.

Sarkodalilar bir hujayradan tuzilgan bo‘lsa ham ularda xilma - xil hayot sharoitiga layoqatlanishi natijasida turli darajadagi murakkab tuzilishidagi formalar hosil bo‘lgan [4,58- bet].

Xulosa: Sarkodalilar sinfi sistematikasi, o‘z filogenezigaga ega. Ular asosan suvli va quruqlik muhitida ko‘p uchraydi. Odam va hayvonlarda parazitlik qiladigan turlari hamda foydali ahamiyatga ega turlari ham tabiatda uchraydi.Evolyutsion jarayonda tuzilishi o‘zaro murakkablashib , yangi o‘ziga xos bo‘lgan belgilarni hosil qila boshlagan.

### Adabiyotlar

1. O. Mavlonov. Shu.Xurramov. X.Eshonova. ,, Umurtqasizlar zoologiyasi " . Toshkent. 2006.
- 2.Q.S. Samadov. ,, Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi". Toshkent. ,, O‘qituvchi " - 1980.
3. E. Rahmonova. ,, Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasidan praktikum ". Toshkent. 1976.
- 4.A. M. Xamadiyev. ,, Зоология беспозвоночных" . Toshkent. 1976.
5. O. Mavlonov. ,, Biologiya ( zoologiya) " . Toshkent.2017.
6. uz.m.wikipedia. orginal